

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**TA'LIM TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA TILLARNI  
O'QITISHNING MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI  
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami**

**2024-yil 17-may**

**Сборник материалов международной научно-практической  
конференции**

**ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ЯЗЫКОВ  
В УСЛОВИЯХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ**

**17 мая 2024 года**

**Collection of materials of the international scientific and practical conference  
PROBLEMS AND PROSPECTS OF LANGUAGE TEACHING IN THE  
CONTEXT OF EDUCATIONAL TRANSFORMATION**

**May 17, 2024**

**Guliston – 2024**

**УДК: 81:37.091.33(08)**

**ББК: 81+74.00**

**П 78**

**Ta’lim transformatsiyasi sharoitida tillarni o‘qitishning muammolari va istiqbollari:** xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Guliston, “Ziyo nashr-matbaa” nashriyoti. 2024-yil. – 550 b.

*To ‘plamga xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishida ishtirok etgan olimlar, o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalarning ma’ruza materiallari kiritilgan. To ‘plamda keltirilgan materiallar nafaqat mutaxassislar, doktorantlar va talabalar uchun, balki keng kitobxonlar uchun ham qiziqarli bo‘ladi.*

**Tahriryat a’zolari:**

**Kurbanov B. Sh.**, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**Jabborova D. D.**, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

**Gizatulina O. I.**, katta o‘qituvchi

**Taqrizchilar:**

**Jumanova D. R.**, filologiya fanlari doktori, professor

**Mamatova X. M.**, pedagogika fanlari doktori, dotsent

*Maqolalar mualliflari materiallarning ishonchliligi, keltirilgan faktlar, iqtiboslar va havolalarning to‘g‘riligi uchun mas’uldirlar.*

*Guliston davlat pedagogika instituti ilmiy kengashi tomonidan chop etishga tavsiya etilgan.*

**ISBN 978-9910-792-45-8**

**Mualliflar jamoasi, 2024**

**Ziya nashr matbaa XK**

## ZAMONAVIY TA'LIM SHAKLLARI VA USULLARI

*Saydinova Dildora Jaloliddin qizi, talaba, Guliston davlat pedagogika instituti  
[Saydinovadildora18@gmail.com](mailto:Saydinovadildora18@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lism oluvchilar dars jarayonining zamonaviy shakllari, texnologiyalari va zamonaviy usullaridan foydalanish metodlari haqida tushunchalar berilgan. Shu bilan birga ta'lism to'g'risida bиринчи va hozirgi prezidentlarimiz qaror va qarashlari, shuningdek turli olimlar fikrlari ta'kidlab o'tilgan. Bundan tashqari, dars jarayonlarini hozirgi zamonga mos ravishda tashkil etishga oid tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** dars, texnologiya, ta'lism-tarbiya, usul, dars jarayoni, metod, didaktika, o'qitish tizimi, o'qitish sifati, zamonaviy texnologiyalar.

Hozirgi kunda maktab ta'liming muammolaridan biri bu ta'lism jarayonining zamonaviy yangi texnologiyalar va usullaridan foydalanishdir. Zamonaviy ta'lism berish jarayonida har bir ta'lism beruvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishlari zarur. Shuningdek, zamonaviy ta'lism beruvchi ya'ni o'qituvchi ta'lism berish jarayonida albatta sifatli va zamonaviy o'quv qurollaridan keng miqyosda foydalana bilishlari lozim. Dars jarayonlari hamda ta'lism-tarbiya tizimi taraqqiyotining yangi bosqichlari haqida gap ketar ekan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida bo'lib o'tgan, mamlakatimiz tizimida ta'lism -tarbiya tizimini takomillashtirish masalalari muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan videoselektordagi yurtboshimizning nutqiga e'tiborimizni qaratsak. Ushbu videoselektorda davlatimiz rahbari "O'qituvchilar va murabbiylar kuni" munosabati bilan soha mutaxassislari vakillariga yo'llagan tabrik nutqida aytib o'tganidek "Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli hamda millatni buyuk qiladigan kuch ham, ilm-fan, ta'lism va tarbiyadir" [1]. Yurtboshimizning ushbu nutqlaridan tushinishimiz mumkinki, ta'lism va tarbiya nafaqat ilm olish, o'rganish balki davlatimiz, millatimiz, xalqimiz kelajagi va qudratidir. Shunday ekan biz hozirgi texnologiya asrida zamonaviy texnologiyalardan foydalanib ta'lism sohasiga, zamonaviy ta'lism shakllari va usullarini joriy etish lozimdir. Ya'ni hozirgi kunda dars jarayonida televizor, kompyuter, internet kabi axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lism oluvchilar etiborini qaratish hamda ta'limga samaradorligini oshirishda samarali natija beradi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ham ta'lism va tarbiya sohasini rivojlantirish borasida keng ko'lami ishlar amalga oshirgan hamda ko'plab asarlar yaratgan. Jumladan prezidentimiz o'zining "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" [2] asarida ta'lism -tarbiya tizimini yanada rivojlantirish hamda ushbu sohaga e'tiborni qaratish g'oyasini ilgari surgan. Ushbu asarni o'qigan kitobxon albatta ta'lism va tarbiya, yuksak ma'naviyat biz uchun qanchalik muhim va ahamiyatli ekanligini to'laqonli anglaydi.

Zamonaviy ta'lism rivojlantirish haqida gap ketar ekan ta'lism nazariyasi bilan shug'ullanuvchi didaktika bo'limi haqida so'zimizni davom ettirsak. Ushbu bo'limda pedagogikaning ta'lism qonuniyatlari hamda metodlarini o'rganamiz.

Jahon ta'limi tarixida birinchi bo'lib, ta'limning sinf-dars tizimini ishlab chiqqan pedagog Kommenskiy o'zining "Buyuk didaktika" [3] asarida ta'lim tarbiya o'zining hozirgi kundagi eng samarali pedagogik qarashlarini va tavsiyalarini yozgan va bu hozirgi kunda keng tadbiq qilinmoqda. Ushbu asarida Komenskiy barcha bolalarning birdek ta'lim olishi ya'ni ayol qizlar ham birdek ta'lim olishi haqida fikrini olg'a surgan. Komenskiy o'quv rejalarini, dars uchun ajratilgan vaqt, kundalik va yillik o'quv soatlari, darsni tashkillashtirish, choraklar va o'qish kunlariga ajratishni belgilab bergan va bu hozirgi kun pedagogik ta'limida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Hozirgi zamonaviy texnologiya asrida zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi zamonaviy texnologiyalar asosida turli metodlardan foydalangan holda o'quvchining ham axloqiy ham ilmiy ham ruhiy rivojlanishini ta'minlashdir. Zamonaviy metodlar o'quvchining mustaqil bilim olishini, keng dunyoqarashini rivojlantirishni, ko'nikma va malakalarni egallashda bevosita faol ishtirok etishi va ularni amalda qo'llashini ta'minlaydi. O'quvchining olgan bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llashi bu ta'limning asosiy negizidir. Chunki pedagogik olimlarning izlanishlari va tadqiqotlariga ko'ra ta'lim oluvchi nazariy bilimdan ko'ra amaliy jarayonda 70% o'rghanishga erishadi. Shu o'rinda yana bir buyuk pedagog K.D.Ushinskiyning ta'lim nazariyasini o'rgansak, demak olim aytganidek: "Bolalar tabiatni anniq ko'rishni talab qiladi". Ushbu nuqtai-nazardan xulosa qilgan holda interaktiv deb ataluvchi faol muhitni taminlovchi metodimizdan foydalanamiz. Masalan, o'quvchiga zebra haqida nazariy ma'lumotlar yetarlicha berildi ya'ni ko'rinishi, rangi, hajmi va hokazo. Biroq o'quvchi zebraning rasmini yoki videosini ko'rmaguncha u haqida tasavvurga ega bo'lmaydi. Demak o'qituvchi nafaqat nazariy balki amaliy darslarni ham amalga oshirishi dars samaradorligini yanada oshiradi. Bu esa yana bir buyuk olim pedagog K. Rojersning "Ta'lim beruvchi o'quvchilarni ta'lim jarayonini osonlashtiruvchi va ushbu jarayonda qulay shart sharoitlar yaratuvchi vosita ham bo'lishlari kerak" [4].

Demak xulosa qilib aytganda yuqoridagilarni inobatga olgan holda dars jarayonlarini quydagi usullarda o'tishni tavsiya qilaman. Masalan o'yin metodlari, jamoaviy hamfikrlikka mos savol javob shartlari, videoroliklar orqali olgan nazariy ma'lumotlarini tasvirini ko'rish, labaratoriya xonalarida jarayonlarni kuzatish bularning barchasi ta'lim jarayonining zamonaviy shakllari va usullarini o'zida bo'lishini ta'minlaydi.

## **Adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh. M. Videoselektor. 30-oktabr 2020-yil. <https://www.yuz.uz>
2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Ma'naviyat. 2008.
3. Komenskiy Y. A. Buyuk didaktika.
4. Alikulov N. X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. O'quv qo'llanma. 2001.
5. <https://www.prezident.uz>